

# **Surxondaryo viloyati delegatsiyasining qadimiy Ayutayya shahriga tashrifi tafsilotlari**



Avval xabar berganimizdek, Surxondaryo viloyati hokimining o'rribbosari boshchiligidagi delegatsiya Tailand davlatida bo'lib, vohaning turizm salohiyatini tanishtirish, o'zaro sayyoohlarni jalb qilish borasida turli uchrashuvlar, xalqaro seminarlarda ishtirok etmoqda.

Xususan, delegatsiya a'zolari joriy yil 31 may kuni Tailand Qirolligining tarixiy poytaxti, YuNESKOning Umumjahon merosi ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan Ayutayya shahriga tashrif buyurishdi. 1350 yilda asos solingan va 1767 yilga qadar Tailand Qirolligi poytaxti hisoblangan Ayutayya shahri o'zining gullab-yashnagan davrida uchta qirolik saroyi, 375 ta ibodatxona, 29 ta mustahkam qal'a bo'lgan, shahar darvozalari soni 94 tani tashkil etgan. O'sha davrda shaharda bir milliondan ortiq kishi istiqomat qilgan.

Tashrif davomida ochiq osmon ostidagi YuNESKOning Umumjahon merosi ob'ektlari ro'yxatiga Ayutayya shahrida joylashgan tarixiy obidalar majmuasining saqlanish sharoiti, muhofaza etilishi hamda mazkur joylarda turistlar uchun infratuzilma va qulayliklar yaratish bo'yicha, shuningdek, uzoq masofali avtomobil yo'llarida barpo etilgan yo'lovchilar to'xtash joylarida yaratilgan sharoitlar bo'yicha Tailand tajribasi o'rGANildi.

Ma'lumot uchun: Tailandga 2019 yil davomida 40 mln.ga yaqin, 2023 yil 1 choragida 6,1 mln. xorijiy sayyoohlarni tashrif buyurgan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)